

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 657.22+334.012

XAYDAROVA DILDORA JAXONGIR QIZI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 - "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit"

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy
darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: DcS., professor N.B. Abdusalamova

Toshkent shahri – 2025 yil

Mundarija

Kirish	3
I bob AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNING NAZARIY JIHATLARI	11
1.1§. Korporativ tuzilmalarida buxgalteriya hisobini rivojlanishi.....	11
1.2§. Korporativ hisob kontsepsiyasining nazariy asoslari.....	25
1.3§. Korporativ hisobi va moliyaviy hisobotning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	36
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	43
II bob AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNI TASHKIL ETISHNING AMALIY HOLATI	46
2.1§. Korporativ hisobni tashkil qilishda hisob siyosatining o'ziga xos jihatlari.....	46
2.2§. Aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro standartlariga o'tishni shakllantirish.....	60
2.3§. Korporativ hisob obyektlari va korporativ hisobot elementlarini baholash.....	68
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	79
III bob AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	82
3.1§. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq korporativ hisobni takomillashtirish masalalari.....	82
3.2§. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobni tahlil qilishning muammolari.....	93
3.3§. Korporativ hisobotlardagi ma'lumotlarni yashirish va soxtalashtirish muammolari.....	107
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	119
XULOSA	121
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	123

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimining samarali tashkil etilishi kompaniyalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, kapital bozori ishtirokchilariga aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish hamda investorlar ishonchini mustahkamlash orqali investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Korporativ hisob standartlari asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida aniq va ishonchli tahlillar uchun zarur bo'lgan axborot bazasini shakllantirib, aksionerlik jamiyatlari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Korporativ hisob tizimi yirik kompaniyalarning globallashtirish sharoitidagi risklarni boshqarish va moliyaviy faoliyatini takomillashtirishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, buxgalteriya va korporativ hisobi va hisobotini shakllantirishda barcha iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Jahonda aksionerlik jamiyatlarida korporativ hisobini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari qatoriga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish metodologiyasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar (shu jumladan, blokcheyn va sun'iy intellekt) asosida korporativ hisobni avtomatlashtirish va uning shaffofligini oshirish, aksionerlik jamiyatlarida ichki nazorat va audit tizimini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish, korporativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda integratsiyalashgan hisobot tizimlarini joriy etish, shuningdek, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha korporativ hisob va hisobotning ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirish kiradi. Ushbu yo'nalishlardagi tadqiqotlar natijasida aksionerlik jamiyatlarining iqtisodiy samaradorligi va global kapital bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan yangi ilmiy-amaliy yechimlar shakllantiriladi.

O‘zbekistonda korporativ hisobni takomillashtirish va uning xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minlash maqsadida qator strategik vazifalar belgilangan bo‘lib, bulardan asosiylari hisobotning shaffofligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda biznes subyektlarining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini tezlashtirishdir. Bu yo‘nalishda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va Auditning xalqaro standartlarini (AHS) milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilish, buxgalteriya hisobi sohasida kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, hisobotning elektron shakllarini amaliyotga joriy etish kabi chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar mamlakatning iqtisodiy shaffofligi, xalqaro maydonda raqobatbardoshligi va investitsion muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim qadam bo‘lib, unda milliy standartlarni MHXS bilan uyg‘unlashtirish, xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashtirish tizimini yaratish va akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlarida mutaxassislarni tayyorlash choralari belgilab berilgan. Ijro etuvchi organlarning vakolatlari va auditorlik tartib-taomillariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, korporativ hisob va kompaniyalar hisobotlarining shaffofligini ta’minlashda korporativ tuzilmalarning rivojlanishi va tadbirkorlik faoliyatining yangi bosqichlarida korporatsiya egalarining manfaatlarini inobatga olgan holda korporativ hisobni takomillashtirish, korporativ hisobning “konseptual apparati”ni shakllantirish va nazariy jihatdan asoslash, milliy korporativ hisobni yuritishning asosiy yo‘nalishlarini ilmiy asoslash, hisob siyosatini shakllantirishda buxgalteriya obyektlarini baholashning xalqaro usullaridan iborat dastur ishlab chiqish, korporativ hisobi va hisobot tizimida tranzaksion xarajatlarni hisobga olishning zaruriyatini ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son

“Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-415-son “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobining nazariy va uslubiy asoslari S.J.Grey, D.Nort, I.F.Sherr, Damodaran Asvat, Yu.V.Skarednova, Yu.Vinslav va boshqalar kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan¹.

Korporativ hisobning iqtisodiy jihatlarini o‘zbekistonlik olimlar B.Berkinov, D.Suyunov, A.Xashimov, A.A.Safarov, R.R.Xusainov va boshqalar mavzuga doir

¹Грэй, С. Дж. Финансовый учет : глобальный подход [учеб.-метод. пособие : пер. с англ.] / С. Дж. Грэй, Б.Е. Нидлз – М.: Волтерс Клувер, 2006. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. М., 1997. С.45. Шерр И.Ф. Бухгалтерия и баланс: пер. с нем. С.И. Чедырбаума / И.Ф. Шерр – М.: Экономическая жизнь, 1925. Дамодаран Асват. Инвестиционная оценка. Инструменты и техника оценки любых активов / пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. Скарעדнова Ю.В. Журнал "Управление корпоративными финансами", июнь 2008 (№3). Особенности и тенденции построения корпоративных структур в частном секторе экономики. Винслав Ю. Утверждая научные принципы управления инкорпорированными корпорациями / Ю.Винслав // Рос. Экон. журнал. – 2001. - № 10. – С. 3 – 26. Андронов В. В. Корпоративный менеджмент в современных экономических отношениях / В.В. Андронов ; науч. ред. В. С. Балабанов ; Рос. акад. предпринима-тельства. – М. : Экономика, 2003. А.М. Макаров. Учебное пособие «Корпоративное управление» ИЭиУ УдГУ, Ижевск, 2012. Николаева С. А. Учетная политика организации: Принципы формирования, содержание,, практические ре-комендации, аудиторская проверка /С.А. Николаева. М.: «Аналитика-Пресс», 2001. — 368 с. Безруких П.С. Бухгалтерский учет. Учебник. Гриф МО, 2004-528с. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет : Учебное пособие. М.: ИПБ – БИНФА, 2002. Дружиловская Т.Ю. Совершенствование бухгалтерского учета обязательств по налогу на прибыль и сближе-ние его с требованиями МСФО // Международный бухгалтерский учет. 2012. № 28. С. 2 – 11 –Дата доступа: 12.03.2022. Чая В. Т. Концептуальные проблемы адаптации МСФО в России / В.Т. Чая // Международный бухгалтерский учет. - 2008. - №1. - С.22 – 29. Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. / Я.В. Соколов – М.: Финансы и статистика, 2000. Нестеренко А. Н. Экономика и институциональная теория / А. Н. Нестеренко; отв. ред. акад. Л. И. Абалкин. – М. : Эдиториал УРСС, 2002.

ba'zi jihatlarini yoritganlar². Bu masala buxgalteriya hisobi sohasida tadqiqot olib borgan olimlar N.B.Abdusalomova, R.D.Do'smurotov, B.A.Xasanov, A.A.Karimov, R.O.Xolbekov, A.K.Ibragimov, D.Norbekov, I.K.Ochilov, N.Q.Rizayev, M.Xodjayeva, Z.T.Mamatov, A.T.Ibrohimov, D.E.Norbekov, S.K.Maxmudov, D.M.Mavlyanova, A.Kozimjonov, M.M.To'laxo'jayeva, M.Yu.Raximov, A.X.Shomalimov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng ko'lamda o'rganib chiqilgan³.

Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy natijalar hisobining umummetodologik asoslariga tayangan holda ayrim muammolar tashkiliy jihatlarini tadqiq qilingan. Biroq, tadqiqotlarga ko'ra, moliyaviy natijalarning nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni, uning amaliy jihatdan turli sohalarga mos kelishi hisoblanadi. Binobarin, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi.

² Беркинов Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац.б-ки Узбекистана, 2005.-132 с; Суянов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2007.-319 б.; Хашимов А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш.: Иқтисод фанлари доктори...дис. иши. – Т.:2007. – 338 б; Сафаров А.А. Учетная политики. Внутрифирменные стандарты управленческого учета / А.А. Сафаров // Управленческий учет, 2006, №5; Хусаинов, Р. Р. Совершенствование корпоративного управления в Узбекистане - залог успешного функционирования АО / Р. Р. Хусаинов. — Текст : // Молодой ученый. — 2017. — № 1.3 (135.3). — С. 51-54.; Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Управленческий учет. – Т.: Г.Гутом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015. – 318 стр.; Замонавий бошқарув ҳисоби. Дарслик./ Б.А. Хасанов, К.Т. Нурманов, Р.Б. Хасанова. – Т.: «LESSON PRESS» МЧЖ нашриёти, 2021 й.; Абдусаломова Н.Б. Бошқарув ҳисоби тизимида ички назорат ва бюджетлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқт.фан.докт. (DSc) дисс.автореф. – Т.: ТМИ. 2019; Ҳажиймуратов. Молиявий ҳисоботнинг ишончлилигини таъминлаш йўналишлари. – Т.: Иқтисод ва Молия, 2020 й. - №3 (135).

³ Абдусаломова Н.Б. Қора металлургия саноат корхоналарида харажатларни бошқариш ва бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш. Иқт.фан.фал.д-ри (PhD). дисс..автореф. – Т., 2017.; Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти : назария, услубиёт ва амалиёт: Монография. - Тошкент: "Молия", 2007. - 276 б; Хасанов Б.А, Хашимов А.А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик. – Т.: Янги нашр, 2011.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Дис....икт.фан.д-ри. БМА. – Т., 2009; Холбеков Р.О. Донни сақлаш ва қайта ишлаш корхоналарида ишлаб чиқариш ҳисобини ташкил қилишнинг тамойиллари ва услубиёти. Дис....икт.фан.д-ри. – Т.,2006.; Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаев Н.Қ. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Т.:Молия, 2010.-272б; Норбеков Д.Е., Очилов И.К. “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари” фанидан ўқув-услубий қўлланма; -Т, 2019; Ташназаров С.Н., Ташназарова Д.С. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.– Самарқанд: СамИСИ,2018. – 421 б; Уразов К.Б. Молиявий ҳисобот: миллий ва халқаро стандартлар мувофиқлиги йўлида. //Бозор, пул ва кредит. Т.:4/2013; Махмудов.С.К. Молиявий инструментларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. Дис....икт.фан.д-ри. – Т.,2023.; Д.М.Мавлянова “Жорий активлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини услубий жиҳатларини такомиллаштириш” номли диссертацияси. -Т, 2020; А.Козимжонов "Ўзбекистонда субъектларда қарз мажбуриятлари бўйича харажатлар ҳисобини такомиллаштириш" номли диссертацияси. -Т, 2022.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-sonli "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo'nalishi" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

-aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobining maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligini ochib berish;

-korporativ hisobi va hisobotlarni tartibga solish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish;

-korporatsiyaning siyosatini shakllantirish xususiyatlarini ko'rib chiqish;

-korporativ tizimida tranzaksion xarajatlarning roli va ahamiyatini asoslash;

-korporativ obyektlarini baholash muammolarini ko'rib chiqish;

-korporativ hisobotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish;

-MHXS bo'yicha asosiy hisobot shakllarining mohiyati, mazmuni va semantik tarkibini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'z kimyosanoat" AJning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ma'lumotlari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisob tizimini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o'rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy matematik tahlil, buxgalteriya hisobi usullari va